

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**K a r i m o v S.A.**

**O'ZBEK TILINING GRAMMATIK  
STILISTIKASI MASALALARI**

**MA'RUZALAR MATNI**

**S a m a r q a n d - 2012**

Mazkur Ma'ruzalar matni 5A220102 –*Lingvistika (o'zbek tili)* yo'nalishida tahsil olayotgan magistr talabalarga mutaxassislik fani sifatida o'tiladigan «O'zbek tilining grammatik stilistikasi masalalari» fanidan o'tiladigan darslar sifatini yaxshilash maqsadida yaratilgan bo'lib, u 2002 yilda qabul qilingan oliy ta'lim tizimi Davlat ta'lim standartlari ko'rsatmalari asosida tayyorlangan Namunaviy o'quv dasturlari asosida yozilgan hamda bunda shu predmet uchun ajratilgan o'quv soatlari hisobga olingan.

Undagi materialdan o'zbek tili stilistikasi sohasida ilmiy kuzatishlar olib borayotgan aspirantlar, tadqiqotchilar ham foydalanishlari mumkin.

**Tuzuvchi:**

**prof. Karimov S.A.**

O‘ZBEK TILI STILISTIKASINI, JUMLADAN  
GRAMMATIK STILISTIKASINI O‘RGANISHNING  
HOZIRGI BOSQICHDAGI MUAMMOLARI

R e j a :

1. Stil – uslub tushunchasi haqida.
2. O‘zbek tilshunosligida stilistikasining o‘rganilishi.
3. O‘zbek tili stilistikasining yo‘nalishlari.
4. Til uslubi va nutq uslubi tushunchalari.
5. Badiiy adabiyot stilistikasi.
6. Vazifaviy uslubshunoslik.
7. Uslubshunoslikning hozirgi bosqichdagi muammolari.

*Tayanch so‘z va iboralar:*

*Stil va stilistika atamalari. Ularning ta‘rifi. O‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi. Predmeti, maqsad va vazifalari. Yo‘nalishlari. Nazariy masalalarini o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlar.. Til va nutq uslublari. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik stilistikasi. Vazifaviy uslubshunoslik. Muammolar va vazifalar.*

O‘zbek adabiy tilining keyingi o‘n yilliklardagi taraqqiyotini ko‘z oldimizga keltirar ekanmiz uning funktsional – vazifaviy imkoniyatlarining naqadar kengayib ketganligining guvohi bo‘lamiz. Bu taraqqiyot bosqichida, ayniqsa, xalqimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi davr alohida bir mavqeni tashkil qiladi.

Buning sababi shundaki, XX asrning oxirgi o‘n yilligida sobiq Ittifoq barbod bo‘lib, mustaqillikka erishilgandan keyin o‘zbek xalqi tarixida butunlay yangi bir davr boshlandi. Davlatchilik tizimining o‘zgarishi munosabati bilan xalqimiz o‘z hayotiga tegishli bo‘lgan barcha ijtimoiy-siyosiy masalalarni o‘zi hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

1991 yilda muqobil saylovlar asosida Islom Abdug‘anievich Karimov O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti etib saylangandan so‘ng yurtboshimiz tomonidan respublikamiz o‘z tanlagan yo‘lining iqtisodiyotning siyosatdan ustuvor bo‘lishi, davlat asosiy islohotchi bo‘lishi, qonun va ularga rioya qilishning hamma narsadan ustunligi, kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi singari tamoyillari ishlab chiqilib, bu tamoyillar taraqqiyotimizning va rivojlanishimizning asosiga aylandi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan paytlarda dunyo XXI asrga qadam qo‘yayotgan bo‘lib, u bilan hamqadamlik vatanimizning rivojlanish strategiyasini, islohotlarni chuqurlashtirishni va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishimizni taqozo qilar edi. Ana shunday bir paytda Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan rivojlanish va taraqqiyotimizning omillari sifatida quyidagi oltita ustuvor yo‘nalish ham belgilab berildi: 1) Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish; 2)

Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish; 3) Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni amalga oshirish; 4) Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi uchun aholini yanada kuchli ijtimoiy himoyalash; 5) Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash; 6) Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millat va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash.<sup>1</sup>

Yangi o'zbek davlatchiligi tarixidagi ana shu tamoyillar va omillar g'oyatda hayotiyligi bilan xalqimiz faoliyatida zarur qo'llanmaga aylandi. Buning natijasi o'laroq bugun biz dunyo hamjamiyatida o'zimizning munosib o'rnimizga egamiz. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini yanada takomillashtirib borishning aniq yo'llari bor. Xalqimizni porloq manzillarga etaklovchi milliy istiqlol g'oyasi ishlab chiqildi.

Shunday ekan, bu jarayonning tilimiz funksional taraqqiyotiga ta'siri sezilarli darajada bo'layotganligi ham tabiiy bir holdir.

Darhaqiqat, mustaqillikning sharofati bilan dunyo eshigining keng ochilishi tilimiz rivojida yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Biz kommunistik mafkura istibdodidan qutulganimizning isboti va natijasi sifatida ruscha-baynalmilal deb nomlangan, chetdan kirib kelgan birliklarni, ayniqsa joy nomlarini qaytadan ko'rib chiqdik, tilimizning amalda bo'lish ko'lami, ta'lim tizimidagi o'rnini bir qadar aniq belgilab oldik. Bunda hali mamlakatimiz mustaqil bo'lmagan paytlardayoq qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonun (1989 yil 21 oktyabr') katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday qilib, jahon tsivilizatsiyasi va ilmiy-texnikaviy inqilob tufayli ro'y berayotgan o'zgarishlarning o'zbek tiliga ta'siri endi boshqacha bir tarzda kechmoqda. Tilimiz ichki va tashqi imkoniyatlariga tayangan holda boyishning yangi yo'llaridan bormoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mustaqillik tufayli xalqimiz hayotida yangi ijtimoiy munosabatlar shakllandi, mavjudlari takomillashdi. Bu hol ayniqs diplomatik aloqalarda, internet tizimining yuzaga kelishida, axborot texnologiyalarining takomillashuvida, xalqaro tajribalarning kirib kelishida, yangi iqtisodiy, diniy, madaniy munosabatlarning shakllanishida ko'rinadi. Binobarin, ana shu islohotlarga bog'liq holda tilimizning rasmiy, ommabop va ilmiy uslublari taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilganligini ta'kidlaymiz. Kommunistik mafkura va sotsialistik realizm tazyiqidan xalos bo'lgan badiiy adabiyotimiz ham bugun boshqacha o'lchovlar, talablar va ehtiyojlar asosida rivojlanmoqda. Kishilarda badiiy tafakkur va mushohadani chuqurlashtirish, ularning qalbida badiiy-estetik zavq uyg'otish, yuksak insoniy tuyg'ular va fazilatlar, ma'naviy qadriyatlar ruhida kamol topishiga ko'maklashish o'zbek adabiyotining bosh maqsadiga aylangan hozirgi davrda badiiy uslubning lingvistik imkoniyatlari ham o'zgardi. So'zga, badiiy so'zga bo'lgan talab, mas'uliyat kuchaydi. O'zbek millatining dunyo hamjamiyatidagi mavqei, uning bugungi rivojlanish darajasi, buning ustiga «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ona tilimizdan so'zlashuv jarayonida foydalanish oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Umummilliy taraqqiyotimiz va madaniyatimizdan orqada qolib

---

<sup>1</sup> O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000, 13-16-betlar.

borayotgan ogʻzaki nutq madaniyati muomala, muloqot jarayonining bu muhim yoʻnalishiga alohida munosabatni kutmoqda.

Shunday ekan, oʻzbek tili nutq madaniyati, meʼyoriy mmuammolari qatorida uning stilistikasi – uslubshunosligi, xususan funktsional – vazifaviy uslubshunosligi sohasida yuzaga kelgan tadqiqotlar umumlashtirilishi, nazariy poydevori mustahkamlanishi, zamon talablari darajasida ayrim oʻrinlari qayta koʻrib chiqilishi lozim.

Taʼlim tizimining oliy bosqichida filologik yoʻnalishda oʻzbek tilshunosligi boʻyicha tayyorlanadigan magistrnlarga fanimizning ana shu dolzarb masalalari boʻyicha saboq berish lozimligini davrning oʻzi taqozo qilmoqda. Maʼruzalar matni shaklida yuzaga kelgan ushbu risolada, birinchidan, ana shu sharafli vazifaning hech boʻlmaganda bir qismini amalga oshirish - oʻzbek tilidagi grammatik vositalarning semantik-uslubiy xususiyatlari yuzasidan maʼlumot berish maqsad qilib qoʻyilgan boʻlsa, ikkinchidan, bu qoʻyilgan masalalarga muallifning baʼzi qarashlari va munosabatlarini ifoda etish nazarda tutilgan.

Matnlar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirgan hamkasblarimizga oʻz minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Har bir milliy til stilistikasini alohida fan sifatida ham nazariy, ham amaliy jihatdan oʻrganishning qanchalik muhimligi bulungi kunda hech kimda shubha tugʻdirmaydi. Akad. V.V. Vingoradov taʼkidlaganidek, u tilni tadqiq etishning oʻziga xos choʻqqisi, milliy nutqiy madaniyat taraqqiyotining nazariy asosidir.<sup>1</sup>

Zero Oʻzbekiston Respublikasining ham mustaqil davlat sifatida tashkil topishi dunyo xalqlari oldida oʻzbek maʼnaviyatini avvalgidan ham kengroq koʻlamda namoyish etish zaruriyatini yuzaga keltirdi va bu masʼuliyat oʻzbek tilshunosligida shu paytga qadar erishilgan yutuqlarni yana bir bor qarab chiqish, ana shu asosda savodxonligimiz hamda nutqiy madaniyatimiz saviyasini yanada oshirish masalasini oʻrtaga qoʻymoqda. Demak, bu borada koʻplab savollarga amalda javob bera oladigan oʻzbek stilistikasi fani bilan har qachongidan ham jiddiy shugʻullanishni hayotning oʻzi taqozo qilmoqda.

Bundan besh asr muqaddam buyuk mutafakkir Alisher Navoiy oʻzbek tilining, ayniqsa uning poetikasining tasviriy va uslubiy imkoniyatlari naqadar keng ekanligini oʻzining yuksak badiiy asarlari hamda «Muhokamat ul-lugʻatayn» kabi bir qator tarixiy va ilmiy asarlari bilan ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab bergan edi. Bu masalaning bir tomoni boʻsla, ikkinchi bir muhim jihati – u zotning oʻzbek tilining ulkan himoyachisi ekanligini ham eʼtirof etmaslik, tan olmaslik aslo mumkin emas. XU asr sharoitida turkiy xalqlar orasida arab va, ayniqsa, fors-tojik tillarining taʼsiri baland boʻlib turgan, hatto ayrim kishilarning turkiy tilni kamsitishgacha borgan bir paytda uni dadil himoya qilib chiqish va uning tenglar ichida teng (arab, fors-tojik tillari bilan) ekanligin isbotlash hammaning ham qoʻlidan keladigan ish emas edi. Buni Alisher Navoiyning oʻzi «Muhokamat ul-lugʻatayn»ni yozib tugallayotganida faxr bilan qayd etadi: «Va xayolingʻa mundogʻ kelurkim, turk ulusi fasihlarigʻa ulugʻ haq sobit qildimki, oʻz alfoz va iboratlari haqiqati va oʻz til va

---

<sup>1</sup> Вингородов В.В. Предисловие // Ефимов А.И. Стилистика русского языка. – М., 1969, с.5-6.

lugʻatlari kayfiyatidin voqif boʻldilar va forsigoʻylarning iborat va alfoz bobida taʼn qilur sarzanishinidan qutuldilar».<sup>2</sup>

Jamiyat, unda faoliyat koʻrsatayotgan xalq tinimsiz rivojlanish va taraqqiyotda boʻlgani kabi ularning tili ham uzluksiz boyib borishi tabiiy bir holdir. Koʻp asrlardan buyon oʻz xalqi va millatining aloqa vositasi boʻlib kelayotgan oʻzbek tilining imkoniyatlari uning barcha koʻrinishlarida yana ham kengaydi, zamonlar silsilasida, badiiy ijod jaraynida yana ham sayqal topdi. U endi oʻzbek xalqi uchun oʻzaro aloqa qilish va bir-birlariga xabar etkazish vositasigina emas, bilki yuksak badiiy-estetik tuygʻularni ham ifodalay oladigan va xuddi shunday taʼsir koʻrsata oladigan, kishilarga zavq beradigan nodir boylikka aylandi.

Ana shu nodir boylikni, boshqacha qilib aytganda, ona tilimizning serqirra imkoniyatlarini butun nozikliklari bilan tahlil qilish va uni yana tilning oʻz ijodkori – xalqqa qaytarish oʻzbek tili stilistikasi – uslubshunosligining bosh masalasidir.

*Stil* va *stilistika* soʻzlari filologiya fanida qadimdan maʼlum ekanligiga qaramasdan, Evropa hamda rus tilshunosligida bu masala bilan asrimizning boshlarida shugʻullana boshlandi. Ammo taʼkidlash lozimki, stilistika masalalari tilshunoslikda 20-yillardayoq tadqiqotchilarning eʼtiborini oʻziga qaratgan boʻlsa ham, u koʻproq adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganib kelinayotgan edi. U faqat 40-yillardan keyin Praga lingvistik toʻgaragi hamda V.V.Vinogradovning bu sohadagi ilmiy ishlari paydo boʻlishi bilan yangicha mazmun kasb etdi, 50-yillardan boshlab tilshunoslikning diqqat markazida turib, uning eng qiziqarli mavzusiga aylandi.

Oʻzbek tili stilistikasini tadqiq qilishning boshlanishi ham ana shu yillarga toʻgʻri keladi. Ammo shu paytgacha yuzaga kelgan koʻplab ishlarni koʻzdan kechirib, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini birmuncha batafsil ishlab chiqish 70-yillarning oʻrtalaridagina boshlangan, deb xulosa chiqarishimizga imkon beradi.

SHu sababli stilistika oʻzbek tilshunosligining boshqa sohalari – fonetika, grammatika, leksikologiya, leksikografiya, frazeologiya, dialektologiyaga nisbatan yangi fan hisoblanadi.

Oʻzbek tilshunoslari Evropa, rus va turkologiyada erishilgan yutuqlarga tayangan holda stilistika fanining predmeti, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini aniqlashga va shu bilan oʻzbek tili stilistikasini nazariy asosga qoʻyishga kirishdilar.

Oʻzbek tili stilistikasining imkoniyatlarini tadqiq etish borasidagi dastlabki ishlar asosan badiiy adabiyot tilini oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, A.Gʻulomovning «Badiiy asar tilidagi kamchiliklar haqida» («Qizil Oʻzbekiston» gaz., 1954 yil 2 avgust), SH.SHOabdurahmonovning «Poʻlat quyuvchi» poemasining tili haqida baʼzi mulohazalar» («SHarq yulduzi» j., 1948, 4-son), «Mohir soʻz sanʼatkori» («Qizil Oʻzbekiston» gaz., 1953 yil 20 may), «Oybek romanlarining tili» («SHarq yulduzi» j., 1955, 10-son), M.Poʻlatovning «Badiiy asar tilini oʻrganish haqida» («Sovet maktabi» j., 1957, 7-son), A.SHomaqsudovning «Muqimiy satirasining tiliga doir» («SHarq yulduzi» j., 1953, 9-son), «Oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida Hamza ijodining ahamiyati» («SHarq yulduzi» j., 1954, 3-son),

---

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Муҳокамат ул-лугʻатайн. Асарлар, 15 томлик. 14-том. – Тошкент, 1967, 132-бет.

«Muqimiy satirasidagi xalq soʻzlashuv tili elementlari haqida» («Oʻzbek tilshunosligi masalalari» toʻplami. SAGU ilmiy asarlari. – Toshkent, 1957), «Muqimiy satirasining tili va stili» («Oʻzbek adabiyoti masalalari» toʻplami. – Toshkent, 1959), R.Qoʻngʻurovning «A.Qahorning «SHohi soʻzana» asarining leksik va stilistik xususiyatlari» (OʻzDU asarlari, yangi seriya, №1. – Samarqand, 1956), «Kechirilmas gunohlar» pʻesasining tili haqida baʼzi mulohazalar» (SamDU ilmiy asarlari, yangi seriya, №77. – Samarqand, 1958), «Alisher Navoiyning «CHor devon»ida kelishik kategoriyasi» (SamDU talabalari tadqiqotlari toʻplami, yangi seriya, №2. – Samarqand, 1959), J.Hamdovning «Muqimiy asarlarida rus tili leksikasi haqida» (SamDU asarlari, yangi seriya, №91. – Samarqand, 1959), M.Husainovning «Oydin hikoyalarida xalq maqollarining qoʻllanishi» (SamDU asarlari, yangi seriya, №91. – Samarqand, 1959) kabi qator tadqiqotlar ana shu urinishlar natijasidir. Bu yillarda shoir va yozuvchilarning tili va uslubini oʻrganishga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyalari ham yozilgan edi.<sup>3</sup>

Ammo badiiy asar tilini oʻrganish borasida yuzaga kelgan yuqoridagi asarlarni hisobga olmaganda, bu ish maʼlum tartib va tizim asosida olib borilmadi. Faqat 60-yillarga kelibgina tadqiqotchilar soni va kuzatishlar koʻlami kengaya bordi. Bunda sobiq Ittifoq miqyosida badiiy asar tilini oʻrganish muammolariga bagʻishlab 1951-1959 yillarda «Literaturnaya gazeta»da, «Voprosi yazikoznaniya» hamda «Voprosi literaturi» jurnallari sahifalarida uyushtirilgan, 1965 yili «Literaturnaya gazeta»da badiiy adabiyoti stilistikasiga bpgʻishlangan bahslar ijobiy rolʻ oʻynadi. «Oʻzbek tili va adabiyoti», «SHarq yulduzi», «Sovet maktabi» jurnallari sahifalarida, koʻplab ilmiy toʻplamlarda oʻzbek tili stilistikasini, uning nazariy asoslarini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy-metodik maqolalar eʼlon qilina boshlandi. Xuddi ana shunday bahslar «Badiiy til muammolari» mavzusida «SHarq yulduzi» jurnalining 1985 yil 1-sonidan eʼtiboran boshlab berildi.<sup>4</sup>

YUsuf Xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Rabgʻuziy, Muhammad Solih, Alisher Navoiy, Bobur, YUsuf Amiriy, Durbek, Umar Boqiy, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, elbek, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Komil YAshin, Zulfiya, SHarof Rashidov, Oydin, Said Ahmad, Maqsud SHayxzoda, SHuhrat, Asqad Muxtor, erkin Vohidov, SHukur Xolmirzaev kabi koʻplab shoir va yozuvchilarimizning asarlarini, xalq ogʻzaki ijodi namunalarini, jumhuriyatimizda paydo boʻlgan ilk vaqtli matbuot materiallarini til aspektida oʻrganishga bagʻishlangan monografik kuzatishlar tadqiqotchilarimizning keng yoʻlga tushib olganligidan, bu boradagi ishlarning birmuncha tartibga solinganligidan dalolat berdi.<sup>5</sup> SHu narsa diqqatga sazovorki, bu kuzatishlarning aksariyat qismi til

---

<sup>3</sup>Шоабдурахмонов Ш. О художественном языке дастана «Равшан»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1949. Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимджана»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Бухара, 1953. Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдин»: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1959 кабилар

<sup>4</sup> Бу чиришлар таҳлили Х.Дониёров ва Б.Йоʻлдошевларнинг «Адабий тил ва бадий стиль» (Тошкент, 1988) китобида бирмунча кенг ёритиб берилган.

<sup>5</sup> Бу ҳақда қаранг: Қоʻнгʻуров Р., Каримов С. Оʻzbek тили стилистикаси ва нутқ маданияти. Библиографик коʻрсаткич. – Самарқанд, 1984; Каримов С., Жоʻраев Т. Оʻzbek тили услубияти ва нутқ маданияти. Библиографик коʻрсаткич. – Самарқанд, 2001.

materialini lingvostilistik yoʻnalishda oʻrganishga, ijodkorlarning individual tili va uslubini tadqiq etishga bagʻishlangan.

Bu davrda yana bir guruh olimlar oʻzbek tili stilistikasining nazariy masalalarini yoritishga, ayrim stilistik kategoriyalarning amalda boʻlish qonuniyatlari va badiiy asar tilining oʻziga xos jihatlarini ochib berishga kirishdilar. A.SHomaqsudov, I.Rasulov, X.Doniyorov, R.Qoʻngʻurov, I.Qoʻchqortoev, H.Rustamov, e.Begmatov, M.Mukarramov, X.Nazarova, N.Mahmudov, M.Sodiqova, B.Bafoev, B.Oʻrinboev, B.Yoʻldoshev, Q.Samadov, L.Abdullaeva, B.Turdialiev, M.Tursunpoʻlatov, B.Umurqulov, B.Fayzullaev, A.Hazratqulov, e.Xoʻjaniyozov, J.Esonov va boshqalarning ilmiy ishlarida ana shu muammolarni hal qilish masalasi oʻrtaga qoʻyildi. X.Doniyorov va S.Mirzaevning «Soʻz sanʼati» (Toshkent, 1963), S.Toʻrabekovanning «Til va uslub» (Toshkent, 1963), N.SHukurovning «Gʻafur Gʻulomning lirik poeziyadagi mahorati» (Toshkent, 1966), «Uslublar va janrlar» (Toshkent, 1973), A.SHomaqsudovning «Muqimiy satirasining tili» (Toshkent, 1971), «Oʻzbek tili stilistikasi, 1-P qismlar» (Toshkent, 1974), X.Doniyorovning «Alisher Navoiy va oʻzbek adabiy tili» (Toshkent, 1972), M.Sultonovanning «YOzuvchi uslubiga doir» (Toshkent, 1973), R.Qoʻngʻurovning «Oʻzbek tili stilistikasidan ocherklar» (Samarqand, 1975), «Oʻzbek tilining tasviriy vositalari» (Toshkent, 1977), «Subʼektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari» (Toshkent, 1980), «Stilistika imeni sushestvitelʼnogo v uzbekskom yazike» (Tashkent, 1983), I.Qoʻchqortoevning «Badiiy nutq stilistikasi» (Toshkent, 1975), B.Oʻrinboevning «Oʻzbek soʻzlashuv nutqi» (Toshkent, 1982), B.Oʻrinboev va D.Oʻrinboevalarning «Hozirgi oʻzbek tilining soʻzlashuv uslubi» (Toshkent, 1991), M.Sodiqovanning «Feʼl stilistikasi» (Toshkent, 1975), Q.Samadovning «Oybekning til mahorati» (Toshkent, 1981), Oʻ.Nosirovning «Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi» (Toshkent, 1981), «Obrazlarda uslub jilolari» (Toshkent, 1991), B.Turdialievning «Hamza va oʻzbek adabiy tili» (Toshkent, 1981), B.Yoʻldoshevning «Badiiy nutq stilistikasi» (Samarqand, 1982), «Stilisticheskiy analiz uzbekskoy xudojestvennoy prozi» (Tashkent, 1989), e.Qilichevning «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (Toshkent, 1982), B.Bafoevning «Navoiy asarlari leksikasi» (Toshkent, 1983), M.Mukarramovning «Hozirgi oʻzbek adabiy tilining ilmiy stili» (Toshkent, 1984), X.Doniyorov va B.Yoʻldoshevning «Adabiy til va badiiy stilʼ» (Toshkent, 1988), B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (Toshkent, 1990), S.Karimovning «Badiiy matnning uslubiy alomatlari» (Samarqand, 1992), «Oʻzbek tilining badiiy uslubi» (Samarqand, 1992), «Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari» (Samarqand, 1999), e.Abdievning «YAzik i stilʼ proizvedeniy Kamilya YAshena» (Toshkent, 1990), B.CHorievning «Gʻafur Gʻulom sheʼriyati tili» (Toshkent, 1990), M.Boʻronovning «Hamza asarlari tilining baʼzi leksik-morfologik xususiyatlari» (Nukus, 1991), mualliflar hamkorligida nashr qilingan «Oʻzbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi» (Toshkent, 1984), «Adabiy turlar va janrlar, 1-P tomlar» (Toshkent, 199-1992) kabi monografiyalar va oʻquv qoʻllanmalari ana shu asarlar jumlasidan boʻlib, oʻrtaga tashlangan va ochib berishga harakat qilingan masalalarni umumlashtirib aytadigan boʻlsak, ularda tilning aloqa vositasi sifatida muomala jarayonida turli soha va vaziyatda qoʻllanishi, bunda nutqni tashkil qilish qonuniyatlari, til tizimidagi barcha vositalarning imkoniyatlarini, maʼno



nozliklarini aniqlash stilistikaning ob`ekti sifatida qaraladi. Keyingi yillardagi katta yutuqlardan biri bo`lgan A.S.Homaqsudov, I.Rasulov, R.Qo`ng`urov, H.Rustamovlarning «O`zbek tili stilistikasi» (Toshkent, 1983) darsligi esa bu fanning predmeti, maqsad va vazifalari, til uslublari va nutq uslublari, vazifaviy uslublar, sinonimiya kabi qator muammolarni birmuncha tartibli va batafsil yoritganligi bilan o`zbek tili stilistikasining to`g`ri yo`ldan rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Stilistika muammolarini tadqiq etishga bag`ishlangan ko`plab asarlarda uning ta`rifiga ham to`xtalib o`tilgan. Ulardan muhimlari sifatida quyidagilarni keltiramiz:

Vingoradov V.V.: ...milliy til stilistikasi tilning hamma jihatlarini qamrab oladi – «uning tovush tuzilishini ham, grammatikasi, gug`ati, frazeologiyasini ham. Biroq u ma`lum til hodisasini tarixiy taraqqiyotdagi yaxlit til qurilishining ichki bog`langan elementlari sifatida emas, faqat funktsional differentsiatsiya, u yoki bu darajada bir xil bo`lgan ma`no ifodasida bir-biriga yaqin, muvofiq, parallel yoki sinonimik vositalarning o`zaro munosabati va ta`siri hamda turli nutqiy hodisalar ekspressiv ma`no va ottenkalarining mos kelishi nuqtai nazaridan qarab chiqadi; boshqa tomondan esa, stilistika bu hodisalarni nutqiy muomalaning alohida shakllari yoki alohida ijtimoiy chegaralangan tiplari va ko`rinishlari bilan aloqadorligi nuqtai nazaridan o`rganadi».<sup>6</sup>

Efimov A.I.: «...stilistika ijodiy mahorat, tilning tasviriy vositalari haqidagi fan hisoblanadi. So`z estetikasi va uning matndagi rolini o`rgana borib, u leksikologiya va grammatikaga boqlangan. Ammo, shu bilan birga, o`rganish ob`ekti, vazifasi va metodlari bilan ulardan tubdan farq qiladi».<sup>7</sup>

Kojina M.N.: «Eng umumiy ma`noda stilistikani nutqiy ta`sirchanlik vositalari hamda bayonning mazmuni, maqsadi va muomala doirasiga bog`liq holda til birliklaridan bir qadar maqsadga muvofiq foydalanish shart qilib qo`yilgan tilning amal qilish qonuniyatlari haqidagi lingvistik fan sifatida ta`riflash mumkin. Bunda, eng avvalo, xizmatga doir, ilmiy, baliy, publitsistik, maishiy kabi bir qolipdagi va sotsial ahamiyatli bo`lgan muomala sohalari ajralib turadi».<sup>8</sup>

Rasulov I.: «Milliy til stilistikasining mundariyasi birmuncha keng bo`lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. Bu stilistik sistema stillardan tashqari, tilning yozma va og`zaki formalarini, adabiy va so`zlashuv nutq ko`rinishlarini ham o`z ichiga oladi. Shunday qilib, stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yoki og`zaki nutqda ko`proq ishlatiladi, degan masala bilan shug`ullanadi, Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda, til vositalarining to`g`ri tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo`llarini belgilash vazifalari yuklatiladi».<sup>9</sup>

Demak, tildagi barcha birliklar – fonetik, morfologik, sintaktik va leksik birliklar ham nutq jarayonidagi holatda stilistikaning predmeti bo`lishi mumkin. Ammo ularning birlamchi ma`nosi kengayib, ma`lum emotsional-ekspressiv ottenkaga ega bo`lsa, va hatto, estetik ta`sir kuchiga ega bo`lsagina shunday bo`ladi.

<sup>6</sup> Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания, 1955, № 1, с.66.

<sup>7</sup> Ефимов А.И. Стилистика русского языка. – М., 1969, с.23.

<sup>8</sup> Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М., 1983, с.23.

<sup>9</sup> Шомаqsудов А. Ва бошq. О`zbek тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 6-7-бетлар.

O'zbek tili stilistikasining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqishda ham, uning asosiy yo'nalishlarini belgilashda ham ana shu mulohazalar tayanch fikr sifatida olingan: «Stilistika – tilda mavjud bo'lgan barcha vositalar – leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma'lum bir tipdagi forma, so'z va konstruktsiyalardan qaysi birini qo'llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo'llanadigan vositalarni belgilab beradi. SHunga ko'ra, stilistika so'z san'ati, ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandır».<sup>10</sup>

Endi bir necha og'iz gap stilistikaning yo'nalishlari haqida. Uning asosiy masalalarini chuqur tahlil qilgan V.V.Vinogradov quyidagi muhim tezisni ilgari surgan edi: «...tadqiqotning hech bo'lmaganda, uch xil doirasini chegaralash lozim bo'ladi. Bu – birinchidan, «tizimlar tizimi» sifatidagi til stilistikasi yoki struktural stilistika, ikkinchidan, nutq stilistikasi, ya'ni tildan ijtimoiy foydalanishning turli ko'rinish va holatlari, uchinchidan, badiiy adabiyot stilistikasi. Poetik nutq nazariyasi va tarixi hamda poetika aynan keyingisi qatoriga kiradi».<sup>11</sup>

R.A.Budagovning bu boradagi fikri esa quyidagicha: «...stilistikani «tizimlar tizimi» sifatida bir chetga qo'yib turib (bu tushuncha hozircha jumboq bo'lib qolmoqda) birmuncha boshqacha va nisbatan sodda bo'lishini taklif qilishni istar edim: 1) umumxalq tili stilistikasi, 2) adabiy til stilistikasi, 3) badiiy nutq stilistikasi (yoki – badiiy adabiyotning o'zi)».<sup>12</sup>

Stilistikaning yo'nalishlari haqidagi M.N.Kojina tasnifi birmuncha sodda va tushunarlidir:

1. Tilning stilistik resurslarini o'rganuvchi yo'nalish. U an'anaviy xarakterda bo'lib, ma'lum ma'noda tilning bo'yoqdor vositalarini, tasviriy imkoniyatlarini, so'zlar, formulalar va qurilmalarning semantik-funksional ottenkalarini izohlovchi tasviriy stilistikadir. Uning asosiy ob'ektlaridan biri stilistik sinonimiya sanaladi. Tilning fonetik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik vositalarini stilistik yo'nalishda o'rganish ham shu sohaning vazifasiga kiradi.

2. Funksional stilistika. Bu yo'nalish tilning kommuni-kativ vazifasidan kelib chiqib muomalaning u yoki bu doirasida amal qilish qonuniyatlarini o'rganadi.

3. Badiiy adabiyot stillari haqidagi fan. Bu yo'nalish adabiy til bilan badiiy adabiyotning turli xil janrlari o'rtasidagi munosabatni tadqiq qiladi. YOzuvchi yoki alohida olingan asar uslubini o'rganish ham shu sohaga kiradi.

4. Va nihoyat so'zlovchi yoki yozuvchining vaziyatga, muomala muhitiga qarab til birliklaridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni o'rgatuvchi amaliy stilistika.<sup>13</sup>

Garchand V.V.Vinogradov mulohazalari, ko'p o'rinlarda tilga olinsa-da, o'zbek tili stilistikasi yo'nalishlarini tadqiq etishda M.N.Kojina tasnifi etakchi o'rinda turganligi ma'lum bo'ladi. R.Qo'ng'urovning quyidagi fikrlari ham buning dalilidir: «O'zbek tilinistilistik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin: bir xillarida stilistikaning umumnazariy masalalari,

<sup>10</sup> Абдураҳмонов Г. Стилистик нормалар ҳақида // О'zbek тили ва адабиёти, 1969, 6-сон, 50-бетю

<sup>11</sup> Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1963, с.5.

<sup>12</sup> Будагов Р.А. Литературные языки и языковые стили. – М., 1967, с.129.

<sup>13</sup> Кожина М.Н. Стилистика русского языка, с.24-26.

funksional stillar tahlil qilinadi, boshqalarida til normalari, badiiy asar tili qarab chiqiladi, uchinchi bir xillarida o'zbek tilining tasviriy vositalari o'rganiladi».<sup>14</sup>

Stilistikaning qamrovi shu qadar kengki. Uning ayrim tushunchalariga aniqlik kiritib olishga to'g'ri keladi. Til stillari va nutq stillari o'rtasidagi munosabatni aniqlab olish, badiiy adabiyottilini o'rganish aspektlarini belgilash, uni funksional uslublar yo'nalishi bo'yicha o'rganish ana shunday muammolar qatoriga kiradi.

V.V.Vinogradov ularning har biriga alohida-alohida munosabat bildirgan:

«Til stilistikasi yoki struktural stilistika formalar, so'zlar, so'z qatorlari va qurilishlarining, tilning yaxlis tstrukturasi ichida «tizimlar tizimi» sifatida, munasabatchilik bo'lgan turli xususiy tizimlarni bayon qiladi, ularga baho beradi, o'zaro munosabatlarini, ta'sirini va aloqasini izohlaydi. U tipik belgilar yig'indisi bilan xarakterlanuvchi til stillarining tarixan o'zgarib turadigan tendentsiyalari yoki o'zaro munosabatlarining ko'rinishlarini o'rganadi. Bu stillar odatda funksional stillar deyiladi, masalan, kitobiy stilga umuman qarama-qarshi qo'yilgan va kommunikativ-maishiy vazifasi bilan hamda shu sababli ba'zan kundalik-maishiy va kundalik-xizmatga doir deb ajratiladigan, boshqa stillardan chegaralangan so'zlashuv; maxsus va o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-kommunikativ vazifaga tegishliligi bilan aniq bilinib turuvchi ilmiy-xizmatga doir; xarakterli sifatleri va tashviqot kommunikativ alomatleri bilan ko'zga tashlanuvchi gazeta- va jurnal-publitsistik; rasmiy-idoraviy hamda rasmiy-hujjat va boshqalar (masalan, tantanali-ritorik, badiiy-tasviriy)».

«Nutq stilistikasi hissasiga turli janrlar hamda og'zaki va yozma nutqning ijtimoiy shartlashilgan ko'rinishlarining o'zaro semantik va ekspressiv-stilistik xarakterdagi noziq farqlarini aniqlash vazifasi tushadi. Chunki, og'zaki nutqning munozaralarda chiqish qilish, ma'ruza, kengash, matbuot konferentsiyasi, doklad, u yoki bu auditoriya bilan suhbat va shu kabi kompozitsion shakllari odatda so'zlashuv va kitobiy til elementlarining ko'p ko'rinishdagi almashinib turishi yoki qorishiq holda kelishi asosiga quriladi».

«Badiiy adabiyot stilistikasi uchun adabiyot tizimi o'zining asosiy stilistik shakllari va bu shakllarning janr ko'rinishlari bilan, individual-badiiy, maktablar va yo'nalishlar uslublari va shu kabilar atrofida aylanadigan qiyoslash va qarama-qarshi qo'yishlari bilan birgalikda tadqiqot predmeti sanaladi».<sup>15</sup>

A.V.Stepanov ham til stili va nuto' stilini farqlaydi. U til stilistikasiga adabiy tilning yozma ko'rinishlari bo'lgan adabiy-badiiy, ilmiy, publitsistik, notiqlik, amaliy, epistoliy uslub taraqqiyotini o'rganuvchi tarixiy soha deb qaraydi. Uningcha, adabiy til tarixi shu uslublar tarixidan iborat. Nutq stilistikasi ham uslublarni o'rganadi. Ammo ular tarixiy taraqqiyotda, o'zaro bir-biriga o'tib yoki yaqinlashib borish holatida emas, balki hozirgi nutqiy janrlarda qo'llanishini o'rganadi. Til stili faqat yozma shaklda, nutq stili esa ham yozma, ham og'zaki shaklda faoliyat ko'rsatadi. Til belgisi uning hamma janrlarida ham yadroliligicha qolaveradi. Nutq stilistikasi tilning hozirgi ijtimoiy, yoki bizda «ommaviy aloqa tili», nutq madaniyati deb ataladigan qo'llanilishini o'rganadi.<sup>16</sup>

<sup>14</sup> Кунгуров Р. Стилистика имени существительного в узбекском языке. – Ташкент, 1983, с.8-9.

<sup>15</sup> Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика., с.5, 15, 75.

<sup>16</sup> Степанов А.В. Основные понятия стилистики. – М., 1966, с.10-13, 66.

## А д а б и ё т л а р

1. *Каримов С.* Ўзбек тилининг функционал стилистикаси – Самарқанд: СамДУ нашри, 2012.
2. *Мамажонов А.* Кўшма гап стилистикаси.- Тошкент, 1990.
3. *Шомақудов А., Расулов И., Қўнғуров Р.* Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983.
4. *Содиқова М.* Феъл стилистикаси. – Тошкент, 1975.
5. *Қўнғуров Р.* Ўзбек тили стилистикасидан очерклар.- Самарқанд, 1975.
6. *Қўнғуров Р.* Грамматик стилистика // “Ўзбек филологияси” тўплами. СамДУ асарлари, янги серия, № 315. – Самарқанд, 1975.
7. *Қўнғуров Р.* Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980.
8. *Қўнғуров Р.* Стилистика имени существительного в узбекском языке. – Ташкент, 1983.
9. *Қўнғуров Р.* Олмош стилистикасига оид айрим мулоҳазалар // “Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар” тўплами. – Самарқанд, 1981.
10. *Қўнғуров Р.* Сифат стилистикаси // “Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти” тўплами. – Самарқанд, 1982.
11. *Қўнғуров Р. Каримов С.* Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти. Библиографик кўрсаткич.– Самарқанд, 1984.
12. Ўзбек тили грамматикаси. I том – Тошкент, 1975.  
II том – Тошкент, 1975.